

AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Irgashova Dildora Ma'murjon qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda axborot-kutubxona muassasalarida zamonaviy faoliyat bilan birgalikda bibliografik resurs va axborot texnologiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Kitobxonlarga ko'rsatilayotgan xizmat sifatini yaxshilash va komoyuterlashtirish qulay va tez usullar yaratish, zamonaviy chet el kutubxonalaridan namuna olish bugungi kun uchun muhim masala ekanligi to'g'risida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *kutubxona, texnologiya, chet el, zamonaviylashtirish, qulaylik, axborot, rivojlanish, qonun.*

Аннотация: *Развитие библиографических ресурсов и информационных технологий вместе с современной деятельностью информационно-библиотечных учреждений важно в быстро развивающееся время. Говорят, что важным вопросом на сегодняшний день является повышение качества обслуживания читателей книг, создание удобных и быстрых методов компьютеризации, взятие образцов из современных зарубежных библиотек.*

Ключевые слова: *библиотека, технологии, зарубежье, модернизация, удобство, информация, развитие, право.*

Abstract: *Development of bibliographic resources and information technologies together with modern activity in information-library institutions is important in rapidly developing times. It is said that it is an important issue for today to improve the quality of services provided to readers and to create convenient and fast methods of computerization, to take samples from modern foreign libraries.*

Key words: *library, activity, technology, abroad, modernization, convenience, information, development, law.*

Bugungi kunda yoshlar manaviyatini oshirishda kitob eng katta vositachi deb ko'p bora takidlaymiz. Ammo bugungi kun yoshlari kitob o'qishyaptimi? Ular o'zlariga qulay bo'lgan usuldan ya'ni elektron manbalardan ko'proq foydalanishadi. Misol uchun, biror bir so'zning ma'nosini qidirayotgan bo'lishsa, albatta uni lug'at kitobdan qarashmaydi. Telefon orqali elektron lug'atdan tez va oson ko'rishadi. Shunday ekan axborot-kutubxona markazlarida elektron bazani shakllantirish va ko'paytirish muhim ahamiyatga ega. Kutubxonaga borgan kitobxonning o'zi qidirayotgan kitobini tez va oson topishi uchun elektron katalog tizimini ham rivojlantirish lozim. Fondagi barcha

kitoblarni elektron katalogga kiritish va ularning to'liq elektron variantini yaratish, bibliografik faoliyatni takomillshtirib lozim.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlagani kabi, "Jahon tarixi shundan dalolat beradiki, har qanday yangi sivilizatsiya, yangi Uyg'onish davri kitob va kutubxonalaridan boshlanadi". Kutubxonashunoslik sohasini yanada rivojlantirish uchun bugungi kunda katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Sohamiz bo'yicha Kutubxona-axborot faoliyati nomli 2011-yil 13-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Qonuni kutubxonachilik ishida ko'plab ishlarni tartibga soldi. Bejizga qonunning 1-moddasiga qonunning maqsadi "axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish" deya kiritilmagan. Hozirgi kunda respublikamiz bo'yicha ko'plab yirik kutubxonalar zamonaviy texnologik jihozlar bilan ta'minlanmoqda. Kompyuter, internet, modem tarmoqlari bilan ta'minlangan bo'lib, kutubxonalararo ma'lumot almashishlar yo'lga qo'yilgan. Bir kutubxonada yo'q bo'lgan kitobning elektron shakli, boshqa bir kutubxonaning elektron fondida mavjud bo'lishi mumkin. O'zaro ichki elektron almashishning yo'lga qo'yilganligi bu kutubxonning tez va oson eng muhimi qidirgan ma'lumot, adabiyotini topishiga yordam beradi.



Xorijiy davlatlarning yirik kutubxonalarida barcha xizmatlar avtomatlashtirilgan bo'lib, ularda zamonaviy texnologiyalar keng qo'llaniladi. Kitoblarni elektron bazaga kiritish uchun ko'plab dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, bu dasturlarni bizning kutubxonalar ham o'zlashtirishmoqda va eng qulayi tanlab olinib kutubxonalarimizda tadbiq qilinmoqda. Ba'zi kutubxonalarda kitobxonlar kutubxonaga borishlaridan avval kutubxonachiga qo'ng'iroq qilib o'z o'rnini banda qilib qo'yadi. Bu esa kutubxonada tartibni saqlash, kitobxonning kutib qolishini oldini olish va qulaylik paydo qiladi. Yilda yilga har bir sohada yengillik yaratish maqsadida yangiliklar yartilayotganligini hisobga olgan holda biz ham o'z sohamizni yanada takomillashtirishimiz uchun bor imkoniyatlarimizni ishga solishimiz kerak. Zero, barcha ilm-u bilimlarning boshi kitobdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, kutubxona qadim zamonlardan beri insonlarning ma'naviyatini oshiruvchi ziyo maskani bo'lib kelmoqda. Zamon bilan hamnafas bo'lgan holda kutubxonachilik ishini ham yangi bosqichga olib chiqish har bir soha fidoiysining burchi deya bemalol ayta olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLARI:

1. Mirziyoyev SH. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik.- Toshkent: Toshkent nashriyot uyi, 2021.- 42 b.
2. Kutubxona-axborot faoliyati nomli O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 13.04.2011 yildagi O'RQ-280-son.
3. Davlatov S.X, Nosirov O', Berdiyeva Z, O'rozov A, Kutubxonashunoslik. Toshkent - 2020. 432 b.
4. Karimova X.K. Yoshlarning siyosiy madaniyatini tuzatish jarayonida axborot-kutubxona vaziyat holati: muammo va yechimlar. // "Axborot-kutubxona resurslaridan fan, ta'lim, madaniyat va biznes sohalida foydalanish" mavzusida o'rnatilgan anjuman materiallari. – Toshkent, 2010. - 22-b.